

## Tuproq kartalarini tuzish

Tuproqlarni kartaga tushirish qishloq xo'jaligida, ilmiy tadqiqotlarda o'ta muhim ahamiyatga ega ekanligi sababli, u yuqori darajada rivojlangan mavzuli kartaga olishning bir turi hisoblanadi. Dotsent O.Ro'ziqulova tomonidan 28.10.2021 kuni YRB fakulteti, Geodeziya va geoinformatika yo'nalishi talabalariga o'tiladigan Tabiiy kartalarni loyihalash va tuzish fanidan "Tuproq kartalarini loyihalash va tuzish" mavzusini yoritilishida soha egalaridan "Tuproqshunoslik va dehqonchilik" kafedrasida dotsenti O.Xaqberdiev ochiq darsga taklif etildi. Tuproqshunos olim tuproq va uning xususiyatlarini kartaga olish yo'llari, dala tadqiqotlarini olib borish uslublari yuzasidan talabalarga keng va batafsil ma'lumotlar berdi.



Jumladan: tuproqlarni paydo bo'lishida ona jinsni roli; O'zbekistonda va dunyoda tuproqlarni zonal tarqalishi; tuproqlarni balandlik mintaqalanishi; Orolqum kengliklarida yuzaga chiqib qolgan sho'rxoklar va ularni tevarak atrofga shamol ta'sirida tarqalmasligi oldini olish choralari; yerlarni ball boritetini aniqlash; o'lkamizda cho'l, tog'li va tog' oldi hududlarida tarqalgan tuproq tiplari hamda ularni muhofaza qilish bo'yicha boy tajribalari bilan o'rtoqlashdi.



Kartaga olish yo'llari V.V.Dokuchaev (1903) g'oyasi bo'yicha tizimlangan va tuproqlarni genetik tasniflashga asoslanib ishlab chiqilgan. Tuproqshunoslar tuproqni tabiiy-tarixiy jism deb hisoblab, uni ishlab chiqarish ob'ekti sifatida o'rganadi. Tuproq qoplamini o'rganish xalq xo'jaligi muammolarini yechish va amaliy tadbirlarni olib borishga zarur bo'lgan muhim ma'lumotlarni beradi. Qishloq xo'jaligini tez rivojlanib borayotganligi sababli yer resurslari miqdorini hisobga olish, yer fondi sifatini baholash - bugungi kunda muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifalar davlat miqyosida, yoki muayyan bir xo'jalik bo'yicha turli masshtabli tuproq kartalari yordamida yechilmoqda. Tuproq ona jins yotqiziqlari ustida va tuproq hosil bo'lish jarayonida, iqlim va biologik omillar asosida rivojlanadi. Har bir tuproq qatlami ko'rsatkichlari chuqurlikga tomon o'zgarib boradi. Natijada, tuproq tiplarga, xillarga ajratiladi va ular o'ziga xos genetik xususiyatlarga ega. Tuproqshunos olimlardan: A.Kovda, S.Abdullaev, R.Qo'ziev, O.Axmedov va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar yuzasidan ma'lumotlar berildi.



O'lkamizda ko'p uchraydigan tuproq sho'rlanishini birlamchi va ikkilamchi yuzaga kelish sabablariga ham to'xtalib o'tildi. Tuproq qoplami - bu hudud bo'yicha tarqalgan tuproqlar birlashmasidir. Ochiq dars so'ngida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar oldilar. Jumladan: dala tadqiqotlarida olib boriladigan "kalit maydonlar"da bajariladigan ishlar, tuproq kartasini tuzishdagi uslublar, respublika tuproqlarida uchraydigan o'zgarishlarni kartalashtirishda ma'lumotlar bazasiga kiritilishi, hosildorlikni ko'paytirish uchun qilinadigan agrotexnik va meliorativ ishlar, raqamli tuproq kartalarini tuzish va ulardan foydalanish yuzasidan boy ma'lumotlar oldilar.

**Ma'lumotlar: Geodeziya va geoinformatika kafedrasida dotsenti O.Ro'ziqulova tomonidan tayrandi.**